
STATISTIKA



Statistika

So'x tumanida "2024 yilda aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish va tadbirkorlikka jalb qilish dasturi"ga muvofiq joriy yil yanvar-may oylarida jami 5 546 ta (143%) yangi ish o'rinlari tashkil etildi, shundan 2 576 tasi doimiy ish o'rni.

Xususan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 347 ta nafar (119,2%), xizmat ko'rsatish sohasida tashkil etilgan yangi ob'ektlar va xizmat ko'rsatish ko'chalari tashkil etish hisobiga 1,8 ming nafar (76,7%), qishloq xo'jaligida aholi tomorqasidan samarali foydalanish va dehqon xo'jaliklari tashkil etish hisobiga 3,2 ming nafar (168,7%), qurilishda yangi uy-joylar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida qurilish ishlari olib borilayotgan ob'ektlar hisobiga 107 nafar (72,9%) fuqarolarimizning bandligi ta'minlandi.

Bandlik dasturi doirasida yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha yanvar-iyun oylariga belgilangan 4 760 ta ish o'rni rejasi 5 546 taga (2 576 tasi doimiy ish o'rni) yoki 1,6 baravarga ortig'i bilan bajarilishi kutilmoqda.

Shu jumladan, iyun oyiga belgilangan 1 148 ta (520 tasi doimiy) ish o'rinlarini 1 448 taga yoki 126 foizga bajarilishi ta'minlanadi.

Joriy yil yakuni bilan, tumanga joriy yil uchun belgilab berilgan 9,2 mingta rejani 10,3 mingtaga bajarilishi kutilmoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-07-15 14:39:35